

## Leksemaning mazmun jihatida baho semasi

Erkinova Marxobo G'ayrat qizi

ToshDO'TAU Lingvistika yo'nalishi

(o'zbek tili)2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada leksemaning mazmun jihatida baho semasining ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Baho semasining leksemalar: ot leksemalar, sifat leksemalar va fe'l leksemalar; grammatik qo'shimchalar ijobiy, salbiy yoki neytral baho munosabatini ifodalashi uchun xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** baho semasi, salbiy ma'no, ijobiy ma'no, neytral ma'no, mazmuniy maydon, ot lekema, sifat leksema, fe'l leksema, maydon nazariyasi.

**Annotation.** The article discusses the expression of the evaluation semaphore in terms of the content of the lexeme. Assessment semant lexemes: noun lexemes, adjective lexemes, and verb lexemes; grammatical additions served to express a positive, negative, or neutral evaluation relationship.

**Keywords:** evaluation semantics, negative meaning, positive meaning, neutral meaning, semantic field, noun lexeme, adjective lexeme, verb lexeme, field theory.

Leksemaning mazmun jihatida asosiy hodisa - leksik ma'no; baho semasi asosan uch xil ifodalanadi: 1) morfema yordamida; 2) leksemaning o'zi bilan; 3) kontekst yordamida. Baho semasining morfema yordamida ifodalanishi morfologik ifodalanish deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida bunday vazifani erkalash, kichraytirish ma'nolarini anglatuvchi -cha,-gina, -jon, -choq, -chak kabi qo'shimchalar bajaradi. Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgan edi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Bu kabi qo'shimchalar asosan ijobiy ma'noda qo'llansa-da, ba'zan kontekstda salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Misol tariqasida:

– Kecha meni shundoq **so‘kdi**, shundoq **so‘kdi**, **yigitgina o‘lgur!** Onamni **so‘kdi-ya, bo‘yniginang go‘rda chirigur**. (O‘. H)

Ushbu parchada so‘kdi leksemasining takror qo‘llanishi, -ya kuchaytiruvta’kid yuklamasi salbiy baho semasini yanada oshirish uchun xizmat qilgan. -gina erkalash-kichraytirish qo‘shimchasini, o‘lgur, bo‘yniginang go‘rda chirigur qarg‘ishlari va ular tarkibidagi -gur affiksi kabi vositalar orqali matnda salbiy ma’no otsenkasi namyon bo‘lganini ko‘rish mumkin.

-cha affiksi kichraytirish ma’nosidan tashqari matndagi boshqa vositalarning ta’sirida erkalash, hurmat bilan birga kamsitish, kesatish kabi salbiy otsenkasini ham ifodalaydi.

Ko‘chadan bir qizcha chopqilab o‘tdi. Sizni esli-hushli yigitcha deb o‘ylardim. Sal o‘pkangizni bosib oling, yigitcha! Ushbu parchada birgina -cha affiksining hurmat hamda kesatq ma’nosi bir xil so‘zda turli xil ma’no otsenkalarida qo‘llangan.

Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Baho munosabati turli aspektlarga ega bo‘lib, inson faoliyatining alohida bir sohasi bilan bog‘langan holda aniqlanadigan aloqalar, bog‘lanishlar tushuniladi<sup>1</sup>. Leksik birliklar mazmun mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir baho munosabatini ijobiy, salbiy yoki neytral ma’no ifodalaydi.

Baho semasi leksemaning o‘zi bilan ifodalansa, leksik ifodalanish deyiladi. Bunda baho semasi leksemalarning o‘zaro semantik munosabatida ochiq ko‘rinadi<sup>2</sup>. Masalan, aql, es, miya, bosh, kalla leksemalari kishining fikrlash, bilish qobiliyati mazmuniy maydonni hosil qiladi. kontekstda qo‘llanilishida salbiy yoki ijobiy

---

<sup>1</sup> Санаева И.В.Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н.Толстого «Война и мир» (дихотомия «добро – зло»).Автореф.канд.филол.наук.-Калининград, 2007,стр.10.,25.С.

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили, -Т., 2010, 56-б.

ma'no otsenkasini ifodalash jihatidan farqlanadi. Kalla leksemasida salbiy ma'no otsenkasi ko'proq anglashiladi. Masalan:

**Kallang ishlaydimi**, uka! Tochniy adresga balo bormi? Ertaga butun mahallang, qarindosh-urug'mg uyingga yopirilib kirsam, yutgan mashinang qani, desa nima. ... Xunobim oshdi. (Said Ahmad)

Baho semasini ifodalashda so'z turkumlaridan foydalanish tilshunoslikdagi yangi muammo tarzida ko'zga tashlanmoqda. Masalan:

Ot so'z turkumi shaxs yoki narsaning nomini bildirishga xizmat qiladi. Baho semasini hosil qilishda bu juda katta yordam beradi.

Ba'zan matnda salbiy ma'nodagi leksemalarni ijobiy ma'noda qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'g'ri, kissavur leksemalari insonlarni to'ndaydigan shaxs otida salbiy baho semasi mavjud. Ammo G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida o'g'ri so'zida salbiy baho munosabati yo'qolgan. Matnda "hoy" undov so'zi, "aylanay" leksemasi hamda -gina affiksi vositasida kontekstual ijobiy munosabat ifodalangan.

— Hoy, aylanay, **o'g'rigina** bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q.

Xizmatkor, ximatchi, malay o'zga kishiga xizmat qilib kun ko'ruvchi, o'zga xizmatiga kirgan shaxs, neytral ma'no otsenkasiga ega. Kontekstda, oddiy so'zlashuv uslubida "malay" leksemasining salbiy baho semasini uchratish mumkin. Ko'pincha yosh jihatdan kichik bo'lgan xizmatchiga qo'llanadi.

Kenja isyon ko'taradi: "Nima, men hammalaringga urichuri **malaymanmi**?!" Aytgan gapining ma'nosini ko'pam o'ylayvermaydigan soddadil Sobir akasi Kenjaga o'shqiradi: "Tayyor loyni zambilga solish ham ishmi!

Predmet nomlarini bildiruvchi otlar ham matnda nomlash nilan bir qator baho semasini ifodalaydi. Kayfiyat, kayf, avzo kabi leksemalar ruhiy holat tushunchasini

ifodalaydi. Bu mazmuniy maydon ijobiy yoki salbiy semasi jihatidan farqlanadi. Kayfiyat, kayf asosan ijobiy semani ifodalash, avzo salbiy bahoni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Baho soʻzlovchining obʻektga yoki holatga boʻlgan ijobiy yoki salbiy munosabatidir<sup>3</sup>. Baho koʻproq belgi bildiruvchi leksemalarda uchraydi.

Ayyor, mugʻombir, hiylagar, quv, ustamon, makkor, dogʻuli xususiyat bildiruvchi sifatlari aldab, chalgʻitib, har qanday ishni oʻz foydasiga hal qiladigan, makr-hiylaga usta mazmuniy maydoni ostida birlashadi. Bu soʻzlar belgi darajasining kuchli yoki kuchsizlik jihatidan farqlanadi. Mugʻombir soʻzida belgi darajasi ayyor soʻziga nisbatan bir oz kuchsiz. Quv soʻzida soʻzida belgi darajasi kuchliroq. Asli ot soʻz turkumiga mansub shayton, tulki, tullak, qirraq leksemalari kontekstda belgi-xususiyat bildirib, “Ish koʻrgan ayyor ” maʼnosida yuqoridagi soʻzlar bilan bir mazmuniy maydonni hosil qiladi. Tulki, tullak, qirraq soʻzlari kontekstdan tashqari holatda qoʻllanganda neytral maʼno ifodalaydi. Tulki yavvoyi hayvon, tullak qari parrandaga nisbatan qoʻllanadi. Baʼzan ot soʻz turkumi sifatga xos vazifani bajaradi.

Oʻzi ham ish koʻrgan **tullak** emasmi, endi bu ogʻir holatdan ustalik bilan chiqib ketadi.

Yana u Mirzakarimboy xonadoniga boshliq boʻlib kekkaysin... boylikning nishobini oʻz tomoniga toʻgʻirlasin!.. U juda **shayton** xotin (Oybek)

Chol soqolini timiskilab: “Ehtiyot boʻling u (Qoʻqonboy) juda **tulki** odam, kattaroq shikast yetkazmasin”, – dedi (Mirmuhsin).

---

<sup>3</sup> Лукянова Н.А.Соотношение понятие экспрессивность, эмоциональность, оценочность. Новосибирск:НГУ,1979,с.6.

Tilimizda uchraydigan shakl-ko‘rinish bildiruvchi sifatlar insonning turli tashqi qiyofasi va tuzilishlarini, predmetning shakliy ko‘rinishlarini bildiradi. Masalan:

Qorni **bo‘g‘oz** sigirlarnikidek o‘bdon eshilganlikdan yonidagi yostiqqa Mulla Muhsinning bo‘sh turgan yostig‘ini ham zamlab yondamasiga cho‘kib oldi (A. Qodiriy).

Matndagi bo‘g‘oz sifat leksemasi obyektgaga nisbatan salbiy baho munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan. Matndagi emotsional-ekspressivlikni oshirgan.

Nutqimizda holat bildiruvchi sifatlar orqali baho semasining ifodalanilishi ham talaygina. Bu turdagi sifatlar inson, hayvon va predmetlarning turlicha holatlarini ifodalaydi. Masalan :

Ammo kechagina qishloqda yashab yurib, bu-uncha joylar bilan quda-anda bo‘laman deb o‘ylamagan akaning boshi **garang** edi (Sobir O‘nar)

Ushbu matndagi garang sifat leksemasi insonning ruhiy holatiga salbiy baho munosabatini ifodalagan. Matnda asl qulog‘i kar ma‘nosida emas, ko‘ma ma‘noda boshi qotgan, nima qilishini bilmay ma‘no otsenkasini ifodalagan.

Fe‘l so‘z turkumi matnda eng faol qo‘llaniladigan va asosiy vazifa barajadigan turkum hisoblanadi. Fe‘l leksemalar shaxs va predmet harakati ma‘nosini anglatib keladi. Fe‘l leksemalar fikrga yakun yasashga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra insonning harakati, holati va boshqa turli xususiyatlari bilan bog‘liq ma‘nolar fe‘l leksemalarda mujassamlashgan bo‘ladi. Chunki fe‘l eng faol so‘z turkumi hisoblanib, gap qurilishida ham markaziy o‘rinni egallaydi. S.D. Kantelsonning ta‘kidlashicha ma‘no planida fe‘l predikatlar oddiy leksik ma‘noga nisbatan kengroqdir. Fe‘l predikatlar ma‘lum leksik ma‘noni ifodalash bilan bir qatorda, o‘zida bo‘lajak gap maketini ham aks ettiradi. Fe‘l predikatlar ma‘lum “bo‘sh

o‘rin”larga ega bo‘lishi bilan birga o‘zi ham mazmuniy jihatdan ma’lum mazmuniy paradigmaga ega bo‘ladi<sup>4</sup>.

Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida ham maydon nazariyasi alohida lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanganligi va unda boshqa sathlarga qaraganda leksik sathga e’tibor ko‘proq qaratilayotganligini ko‘rishimiz mumkin<sup>5</sup>. Agar shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan fe’l leksemalar butun bir sistema sifatida qaralsa, uni baho anglatuvchi va baho uchun betaraf tarzida ikki guruhga ajratish imkoniyati tug‘iladi. Baho anglatuvchi fe’l leksemalar alohida maydonni tashkil etadi. Shu bois insonning insonlarga munosabatini anglatuvchi semantik maydonlar boshqa maydonlarga qaraganda ko‘p va keng ko‘lamli bo‘ladi<sup>6</sup>.

Hozirgi tilshunoslikda fe’llarning hamma e’tirof etgan mazmuniy tasnifi mavjud emas. Turli printspga ko‘ra turlicha tasnif qilinadi (denotativ, paradigmatic, sintagmatik aspektida)<sup>7</sup>.

Paradigmatik nuqtai nazardan fe’l invariant ma’noga ko‘ra tasnif qilinadi. Bunga muvofiq, harakat (faoliyat), holat, xususiyat, munosabat fe’llariga ajratiladi.<sup>8</sup> B. Qambarovning “Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi” deb nomlangan tadqiqot ishida shaxslar o‘rtasidagi baho munosabatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi fe’l leksemalarni tasniflashda shaxs bahosini ifoda etuvchi fe’l leksemalarni yettita guruhlarga ajratish mumkin degan xulosaga kelgan. Bular: shaxsning umumiy holatini ko‘rsatuvchi; jismoniy harakat bilan bog‘liq; nutq bilan aloqador; sezish bilan bog‘liq; tafakkurni anglatuvchi ; ruhiy holat anglatuvchi hamda insonning iqtisodiy sharoiti bilan bog‘liq fe’l leksemalardir.

---

<sup>4</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд,- Т.,2012, 345-б.

<sup>5</sup> Искандарова Ш.Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (Шахс микромайдони): Филол... фанлари д - ри ... дис. автореф. - Т., 1999; Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол... фан. док.- ри ... дис. автореф. - Т., 2005; Ҳожиева Ҳ.Я. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний - нутқий хусусиятлари: Филол. Фан. номзоди ... дис. автореф. - Самарканд, 2001.

<sup>6</sup> Собиров А.Ш.Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ қилиш. — Т.: Маънавият, 2004. —Б. 107.

<sup>7</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд,- Т.,2012, 345-б.

<sup>8</sup> Богданов В.В.Семантико-синтаксическая организация предложения; Чаиф У.Л.Значение илтимоснома структура языка. –М.,1979. –С.116-120; Сильницкий Г.Г. Семантические типы ситуаций илтимоснома семантические классы глаголов// Проблемы структурной лингвистики. –М., 1973. С.373-390; Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд,- Т.,2012, 345-б.

Insonning holatini ifodalovchi ruhiy - psixologik faoliyatiga aloqador fe'l leksemalar ham shaxs bahosini ko'rsatishda ahamiyatli sanaladi.

Muncha **irjayasan**? Yaya, Fosih afandi bo'lsa.. qora duldul ustida **kuydirgan kalladay irjayib** o'tirar edi (M. Ismoiliiy).

Matndagi irjayasan, kuydirgan kalladay vositalari subyektning obyektga nisbatan salbiy baho munosabatini ifodalab, emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qilgan.

Ijobiy istakni bildiruvchi birliklarni hosil qilishda ishtirok etadigan fe'lning - gur mayl shakli ijobiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Tanchaga o'tira qol, ha, **omon bo'lgur-a**, shunday kelaverganingni qara.

– Risolat kampir Anvarni xuddi go'dakni avaylaganday tanchaga o'tqazdi (T.Malik).

Xulosa o'rnida, leksemalar matn tarkiba o'zi bog'lanib kelgan so'zlar, tarkibidagi qo'shimchalar vostidasida turli baho semasiga ega bo'ladi. Tabiatan neytral, ijobiy yoki salbiy mazmunli leksemalarni matndagi boshqa vositalar yordamidaa turlicha semada ifodalash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Богданов В.В.Семантико-синтаксическая организация предложения; Чаиф У.Л.Значение илтимоснома структура языка. –М.,1979.
2. Iskandarova Sh.O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (Shaxs mikromaydoni): Filol... fanlari d - ri ... dis. avtoref. – T., 1999.
3. Лукьянова Н.А.Соотнашение понятие экспрессивность, эмоциональность, оценочность. – Новосибирск:НГУ,1979.
4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild, – T.,2012.
5. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili, – T., 2010.
6. Санаева И.В.Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н.Толстого «Война и мир» (дихотомия «добро – зло»).Автoref.канд.филол.наук. – Калининград, 2007.

7. Sobirov A.Sh.O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq qilish. — T.: Ma'naviyat, 2004.